

## DARSLARNI ZAMONAVIY, INTERFAOL USULLAR BILAN TASHKILLASHDA ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARI METODIK TAVSIYALAR

*Sodiqova Mahliyoxon No'monovna*

*Andijon viloyati Izboskan tumani 34-umumiy o'rta  
ta'lim mакtabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*



**Anotatsiya:** Ushbu uslubiy tavsiyada ona tili darslarida o'qitish uslubi va ta'lim texnologiyalari bo'yicha fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** oshirishda "Eslab qol", "Xato top", "Izoh ber", "Davom ettir", "Tinish belgini qo'ying", "Jumlani to'g'ri tuz", "Donolar bisotidan" kabi ta'limiy o'yinlar.

Til-millat qiyoqasining bir bo'lagi, ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarsi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkon yaratadi. Xo'sh, bugungi kunda maktablarda ona tili darslari qay darajada o'quvchilar ongiga yetib bormoqda? O'quvchilar ona tili darslarini zamon talablariga xos tarzda tushinishlari uchun qaday metodlardan foydalanish kerak? Uslubiy tavsiya orqali shu kabi savollarga javob berish bilan birga yangi interfaol metodlarni o'rganib olishingizga ishonamiz.

"Eslab qol" o'yini. O'yin shartiga ko'ra, o'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan mavzuga mos so'zlardan aytadi. O'quvchilar bu so'zlarni eslab qolib daftarlariiga imlo qoidasi asosida yozadilar.

Masalan: "Tutuq belgisi" mavzusi asosida (mas'uliyat, Ra'no, ma'rifat, a'o ba'zan, san'at, va'da, e'lom, fe'l ...) o'quvchi videoproyektor orqali ekranda yuqoridagi so'zlarning yozuvini ko'rsatadi. O'quvchilar yo'l qo'ygan imlo xatolarini topadilar va har bir o'quvchi nechta so'zni eslab qolib yozganlarini hisoblab chiqadi. To'g'ri va ko'p so'z yozgan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Bu o'yinni darsning tashkiliy yoki mustahkamlash davrida qo'llash mumkin. Bu o'yin esda tutuish qobiliyatini oshirishda yaxshi samara beradi.

"Xato top" o'yini. Bunda o'quvchilar guruh bo'lib ishlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir guruhga xato yozilgan so'zlar berilgan matnlar tarqatildi. Matn tanlashda o'tilgan mavzuni inobatga olish kerak. Masalan: "Uyushiq bo'laklari", "Undalmalar" yoki "Unli tovushlar" mavzulari asosida matnlar tayyorlash mumkin.

Guruuhlar xato yozilgan so'zlarni yoki tinish belgilarini aniqlaydilar. Belgilangan vaqtidan so'ng marnlar o'zaro almashinib, guruuhlar o'zaro xatolarini ko'rib chiqadilar. Qaysi guruuh qanday natijaga erishganini ekranda berilgan to'g'ri matn orqali bilib oladilar. Bu usul o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yordam beradi. Darslarni musobaqa tarzida tashkil etilganda bu o'yinda foydalanish mumkin.

"Izoh ber" o'yini. Bu o'yinda "Dam olish daqiqasi"da foydalanish mumkin. Oq qog'ozda boshqa tillardan o'zlashtirilgan yoki ma'nosi qiyin so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar yozib qo'yilib, sinf taxtasiga ilinadi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, so'zlarning izohini yozadilar.

Masalan: Sarbon- karavonboshi; Chilvir – ingichka arqon; Ranj- ozor, alam

Kamarbasta- xizmatga tayyor. Bunda iboralardan foydalanish ham mumkin:

Yog' tushsa yalagudek- toz ;Kapalagi uchib ketdi- qo'rmoq.



O'yin davomida o'quvchilarning yozma nutqda so'zlardan va iboradan unumli foydalanish malakasi oshadi.

"Davom ettir" o'yini. O'yin davomida o'qituvchi o'quvchilarning o'z tasavvurlarini yozma bayon qilishga o'rgatadi. Bu kichik hikoya, ertak yoki bog'lanishni matn bo'lishi mumkin.

O'qituvchi mavzu yozilgan qog'ozni tarqatadi. O'quvchilar partalarda o'tirgan holda oldindan orqaga qarata mavzu asosida bittadan gap yozib, qog'ozni uzatadi. O'quvchilar o'zlaridan oldin yozilgan fikrlarni to'ldirib, mavzuga mos gaplarni yozadilar.

Masalan: O'zbekiston – Vatanim manim. 1. O'zbekiston men tug'ilib, o'sgan diyor. 2. Men o'z Vatanimni sevaman. 3. O'zbekiston serquyosh, go'zal diyor. 4. Vatanim gullab-yashnamoqda. 5. O'zbekiston jahonga yuz tutmoqda. 6. Men o'z Vatanimdan faxrlanaman. Bu usul o'quvchilarni hamjihatlikka tarbiyalaydi. Bog'lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi. Darsning aralash turlarida, takrorlash darslarida bu ta'limiy o'yindan unumli foydalanish mumkin. Musobaqa usulda tashkil qilish yaxshi samara beradi.

"Jumlani to'g'ri tuz" texnologiyasi. Bu o'yinni tashkil etishdan maqsad o'quvchilarni uslubiy xatolarga yo'l qo'ymaslikka o'rgatish hamda yozma va og'zaki nutqni ravon va chiroyli bo'lishiga erishish asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchi jumlalar chalkash bo'lgan gaplarni proyektor orqali ekranda namoyish qiladi va o'quvchilar jumlalarni to'g'irlab yozadilar. Masalan: Mashina chang ko'tarildi yurib ketgach, orqasidan. - Mashina yurib ketgach, orqasidan chang ko'tarildi. Ba'zi she'rlardagi jumlalarda ro'y bergan o'zgarishlar she'riy qofiya yoki ohangdorlik talabi ekanligi ham inobatga olinib, o'quvchilarga tushuntiriladi.

"Donolar bisotidan". Bu o'yin uy vazifasi tariqasida topshiriq berish bilan tashkil qilinadi. O'quvchilarga ulug' allomalar, yozuvchi shoirlar, davlat arboblari so'z bisotidan aytilgan fikr, so'zlar va pand-nasihatlardan yodlab kelish vazifasi beriladi. Keyingi darslarda shu asosida o'quvchilardan so'rab boriladi. O'qituvchi bu fikrlarning ma'nosini o'zlashtirishda o'quvchilarga yordam beradi.

Ona tili fanidan dars jarayonlarida o'quvchining yozma savodxonligi, imlo qoidalari mukammal o'zlashtirganligi va yozma nutqning rivojlanganligini hamda husnixat bilan yozishini inobatga olib, yangi pedagogic texnologiyalar, ta'limiy o'yinlar orqali mashg'ulotlarni tashkil etish kelajakda yetuk intellectual barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Xulosa o'mida aytadigan bo'lsak, ona tili va adabiyot o'qituvchilari darslarni tashkillashda har bir dars bir-biridan farq qilishi kerak. Kutilayotgan natijalatga mos bo'lgan pedagogik texnologiyalarni tanlash, ta'lim-tarbiya jarayonini amalgam oshirish va muntazam takomillashtirib borishdan iborat. Pedagog dars o'tish jarayonida aktyor bo'lish bilan bir qatorda ijodkor ham bo'lishi kerak. Eskirib ketgan, siyqasi chiqqan metodlar ham o'quvchi uchun qiziq bo'lmay qoladi. Shuning uchun tajriba almashish, yangi narsa o'rganish, ijodkorlik tuyg'usini uyg'otish va shakllantirish uchun kuzatib, tahlil qilish, metodik yordam berish asosiy maqsadimiz bo'lishi kerak. Shundagina yuqorida ta'kidlanganidek, yoshlikda olingan bilim — toshga o'yilgan naqsh kabi bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov S, Qosimov B va boshqalar. Adabiyot 5-sinf uchun. Toshkent: "Sharq", 2020.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2000.
3. N. Mahmudov, A. Sobirov va boshqalar . Ona tili 5-sinf uchun. Toshkent: G'ofur Gulom, 2020.